

MAXFIYLIK SIYOSATI

INTIL - onlayn kurslar va unga aloqador bo'lgan internet xizmatlarini taqdim etuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyat hisoblanadi. Xizmatlar <https://intil.uz> va unga aloqador bo'lgan, shu nom bilan yuritiluvchi ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etiladi. Ushbu Maxfiylik siyosati kompaniya tomonidan taklif qilinadigan barcha xizmatlarga taalluqli.

Kompaniya o'z mijozlari bilan aloqa o'rnatishda quyidagi ma'lumotlardan foydalanadi:

Shaxsiy ma'lumotlar. Tashkilot faoliyat davomida foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini to'plashi mumkin. Mazkur jarayon saytdan ro'yxatdan o'tish va boshqa resurslardan foydalanishda parallel amalga oshiriladi. Tinglovchilar ixtiyoriy ravishda o'z ma'lumotlarini taqdim etgan taqdirdagina shaxsiy ma'lumotlar bazada to'planadi.

Qo'shimcha ma'lumotlar. Kompaniya ko'rsatiladigan xizmat sifatini yaxshilash hamda xavfsizlik maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni foydalanuvchining ixtiyori (ixtiyorisiz) olishi va saqlashi mumkin. Bunday ma'lumotlarga qatoriga IP manzil, geolokatsiya ma'lumotlari, kompyuterlar va mobil qurilmalar bilan bog'liq identifikatsiya raqamlari, mobil aloqa operator ma'lumotlari, tranzaktsiyalar bilan bog'liq amaliyotlar va boshqalar kirishi mumkin.

Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish

Kompaniya foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini quyidagi maqsadlarda to'plashi va foydalanishi mumkin:

- **Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida.** Taqdim etilgan ma'lumotlar mijozlarga xizmat ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash sifatini oshirishga yordam beradi;

- **SMS xabarlar yuborish uchun.** Kompaniya o'z mijozlarining telefon raqamlariga kurslar yoki xizmatlar haqida SMS xabarnomalar yuborishi mumkin. Bundan tashqari, telefon raqamlar mijoz hamda kompaniya o'rtasida paydo bo'luvchi savollar, takliflar, e'tirozlar va boshqa so'rovlar maqsadida ham ishlatilishi mumkin;

- **Remarketing maqsadida.** Kompaniya Google Analytics, Yandex Metrica, Facebook Pixel kabi uchunchi tomon xizmatlaridan foydalangan holda «remarketing» (qayta marketing qilish) bilan shug'ullanishi mumkin.

Fors-major holatlar.

MChJ foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini uchunchi tomonga taqdim etmaydi. Barcha ma'lumotlarga kirish huquqi faqatgina administratorlarda saqlanib qoladi. Hakerlar hujumi ro'y bergan taqdirda mijozlar sayt va ijtimoiy tarmoqlar orqali ogohlantiradilar.

Ma'lumotlarni o'chirish

Foydalanuvchilar saytdagi o'z shaxsiy ma'lumotlarini o'chirishni istagan taqdirda info@intil.uz orqali kompaniyaga murojaat qilishlari mumkin bo'ladi.

Maxfiylik siyosatini yangilash

Ushbu maxfiylik siyosatiga ma'lum vaqt davomida o'zgartirish kiritilishi mumkin. Bunda ikkinchi tomonning roziligi talab etilmaydi. Mazkur hujjatda katta o'zgarish bo'lgan taqdirda barcha foydalanuvchilarga sms xabar yoki sayt orqali e'lon beriladi.

Maxfiylik siyosatiga rozilik bildirish

Mijozning sayt orqali ro'yxatdan o'tishi Maxfiylik siyosatiga roziligini tasdiqlaydi.

Hujjat qabul qilingan sana:

07.02.2026